



# NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMI QARORI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-13-42, [nurota@nv.uz](mailto:nurota@nv.uz)

2023 - yil 3 - noyabr

131-5-74-Q/23

Nurota tumani hokimligi

## **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida**

Tuman hududida tashqi reklama va ijtimoiy axborotni joylashtirish sohasini tizimli tartibga solish, mazkur yo'nalishda qat'iy nazorat o'rnatish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratib, mulk daxlsizligini ta'minlash hamda sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 25-, 27-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli hamda Viloyat hokimining 2023-yil 31-oktabrdagi 218-5-0-Q/23-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (U.Kenjayev), tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati (F. Abduazizov)lar birgalikda:

davlat mulki bo'lgan yer uchastkalari, binolar hamda inshootlarda yangi o'rnatiladigan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) qurish huquqi uchun elektron onlayn-auksion yakunlari bo'yicha to'lov hamda tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) tashqi reklamani joylashtirish (tarqatish) uchun yig'im o'rniga miqdori ochiq elektron auksion savdolari orqali belgilanadigan tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o'rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo'lgan huquq uchun yagona oylik yig'im (keying o'rinlarda — yig'im) joriy etilishi;

davlat mulki bo'lgan yer uchastkalarida, bino hamda inshootlarda tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun reklama joyining pasporti hamda ularni o'rnatish uchun shartnomalar ommaviy oferta shaklida "E-auksion" elektron savdo platformasining yagona elektron savdo maydonchasida auksion g'olibiga avtomatik tarzda berilishi;

xususiylashtirilgan, ijaraga berilgan yoki nodavlat tashkilotlarga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarida, shuningdek, xususiy mulk bo'lgan binolar va inshootlarda hamda transport vositalarida (yo'nalishlardagi avtobuslar bundan mustasno) tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi reklama joyining pasporti O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda - YalDXP) axborot tizimi orqali berilishi to'g'risidagi

tartibga qat'iy rioya etilishi choralari ko'rsin.

3. Nurota tumanida tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman hokimi maslahatchisi (U.Kenjayev) tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari bajarilishiga mas'ul etib belgilansin.

4. Quyidagilar:

Nurota tumani hududida joylashtirilgan (o'rnatilgan) tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni xatlovdan o'tkazish tartibi 2-ilovaga muvofiq;

tumanda tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining maslahatchisi (U.Kenjayev), iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati (F. Abduazizov), tuman qurilish va uy joy kommunal xo'jaligi bo'limi (J.Axmatkulov) tuman yo'llardan foydalanish DUK (R.Norboboyev), soliq inspeksiyasi (O. Jo'raqulov)lar birgalikda:

2023-yil 1-dekabrga qadar manfaatdor boshqarma va tashkilotlarni jalb qilgan holda, tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o'tkazsin;

tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) belgilangan tartiblarga muvofiq o'rnatilganligi ustidan doimiy nazorat qilib borsin;

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish va ulardan foydalanish qoidalari hamda ularni o'rnatish chizmalari tasdiqlanishini ta'minlasin;

tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) o'rnatish uchun shartnoma ommaviy ofertasining namunaviy shaklini ishlab chiqilishini ta'minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (L.Mansurov), "Nurnoma" gazetasi tahririyatiga iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati (F.Abduazizov) bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida ushbu qarorning maqsad va vazifalarini keng yoritish ishlarini tashkil etish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining maslahatchisi U.Kenjayev va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati boshlig'i F.Abduazizovlar zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Fayziyev**

Nurota tuman hokimining  
2023-yil 3-noyabrdagi  
131-5-74-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

**Nurota tumanida tashqi reklamani joylashtirish sohasini rivojlantirishning**

**MAQSADLI KO'RSATKICHLARI**

T/r	Hududlar nomi	2023-2025-yillarda yangi yaratiladigan tashqi reklama ob'ektlarining (konstruksiyalari) prognozi	2023-yilda			2024-yilda			2025-yilda					
			Jami	Aksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YaIDXP orqali beriladigan pasportlar bo'yicha konstruksiyalar soni	Jami	Aksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YaIDXP orqali beriladigan pasportlar bo'yicha konstruksiyalar soni	Jami	Aksionga chiqariladigan konstruksiyalar soni		YaIDXP orqali beriladigan pasportlar bo'yicha konstruksiyalar soni
				LED ekran soni	bilbord soni			LED ekran soni	bilbord soni			LED ekran soni	bilbord soni	
<b>JAMI</b>		<b>5</b>	2	1		1	3	1	1	1				
1	Nurota tumani	5	2	1		1	3	1	1	1				

Nurota tuman hokimining  
2023-yil 3-noyabrdagi  
131-5-74-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Nurota tumani hududida joylashtirilgan (o'rnatilgan) tashqi  
reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni  
xatlovdan o'tkazish**

**TARTIBI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Tartib ishchi guruh tomonidan Nurota tuman hududida joylashtirilgan (o'rnatilgan) barcha turdagi tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) ularning qonuniyligi, turlari, o'lchami, joylashuvi, mansubligi, egasi va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash hamda identifikatsiya qilish maqsadida xatlovdan o'tkazish tartibini belgilaydi.

**2-bob. Asosiy tushunchalar**

2. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi: muvofiqlashtiruvchi guruh - Nurota tuman hokimining tegishli qaroriga asosan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida mutasaddi idora vakillaridan tuzilgan maxsus guruh;

**ishchi guruh** - tuman hokimining tegishli qaroriga asosan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) xatlovdan o'tkazishni amalga oshirish maqsadida mutasaddi idora vakillaridan tuzilgan maxsus guruh;

**tashqi reklama** - nomuayyan shaxslar doirasi ko'rishi uchun mo'ljallangan, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiyalarida) joylashtiriladigan grafikli, matnli yoki boshqa reklama; reklama joyi (tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o'rnatiladigan joy) — tashqi reklama va axborot obyekti (konstruksiyasi) o'rnatiladigan maxsus ajratilgan va (yoki) berilgan hudud (yer, asfalt, yashil hudud va boshqalar), bino, inshoot sirtqi qismining muayyan yuzasi; reklama joyining pasporti - viloyat hokimligi tomonidan beriladigan hujjat bo'lib, ushbu hujjat yuridik va jismoniy shaxslarning tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) unda ko'rsatilgan yer uchastkasiga, binoga yoki inshootga, mulk shaklidan qat'iy nazar, o'rnatish huquqini tasdiqlaydi;

reklama vositalari - reklamadan foydalanuvchiga reklamani yetkazish uchun foydalaniladigan vositalar (obyektlar, konstruksiyalar);

**xulosa dalolatnomasi** - tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) identifikatsiya qilish maqsadida ishchi guruh tomonidan o'tkazilgan xatlov natijalari qayd etiladigan va tasdiqlanadigan maxsus blank.

**3-bob. Tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari)ni xatlovdan o'tkazish tartibi**

3. Ishchi guruh tomonidan Nurota tumanining ma'muriy hududlari (qishloqlari) bo'yicha xatlovdan o'tkazish yo'nalish jadvali va muddatlari ishlab chiqiladi.

**4. Xatlov uch bosqichda o'tkaziladi.**

**4.1. Birinchi bosqich:**

Nurota tumanida o'rnatilgan tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini beruvchi hujjatlar (pasport, guvohnoma va boshqa huquqni belgilovchi hujjatlar) to'g'risidagi mavjud ma'lumotlar asosida mavjud tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) joylashuv xaritasi va ularning reyestri shakllantiriladi. Mazkur ma'lumotlar asosida ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladigan xatlov yo'nalishlari (ko'cha, hudud yoki massiv) belgilab olinadi. Belgilangan xatlov yo'nalishlari asosida ishchi guruh a'zolari joyiga chiqqan holda xatlov ishlarini amalga oshiradi.

#### **4.2. Ikkinchi bosqich:**

Xatlov ishlari tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan maxsus elektron dastur ilova orqali amalga oshiriladi.

Bunda, ishchi guruh a'zolari belgilangan xatlov yo'nalishlari asosida manzillarga chiqqan holda o'rganish o'tkazadi va ushbu manzillarda joylashtirilgan (o'rnatilgan) tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) turlari, o'lchami, joylashuvi, mansubligi, egasi, manzillari (geolokatsiyalari) to'g'risidagi ma'lumotlarni, foto suratlari va boshqa ko'rsatkichlarini hamda tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egasi tomonidan (tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egasi mavjud bo'lganda) taqdim etilgan pasport ma'lumotlari maxsus elektron ilovada qayd etadi.

Ishchi guruh a'zolari tomonidan maxsus elektron ilovada qayd etib borilgan ma'lumotlar asosida Nurota tumanida joylashtirilgan tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) to'g'risidagi ma'lumotlarning elektron bazasi va ularning joylashuv xaritalari elektron tizimda real vaqt rejimida avtomatik ravishda shakllantirilib boriladi.

#### **4.3. Uchinchi bosqich:**

Ishchi guruhlar tomonidan joyiga chiqqan holda o'tkazilgan xatlov natijalari asosida maxsus elektron ilovada qayd etilgan ma'lumotlar umumlashtirilib, yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi va ushbu ma'lumotlar bazasi, mavjud ma'lumotlar asosida dastlab shakllantirilgan mavjud tashqi reklama va axborot obyektlarining (konstruksiyalarining) joylashuv xaritasi va ularning reyestrlari bilan solishtiriladi. Solishtirish natijalari asosida ishchi guruhlar tomonidan har bir tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) bo'yicha alohida xulosa dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va ishchi guruh a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur xulosa kelgusida ushbu tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) uchun berilgan tashqi reklamani joylashtirish huquqini beruvchi hujjatlarning amal qilish muddatlarini uzaytirish va yangi shakldagi pasport rasmiylashtirishda inobatga olinadi.

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar:**

5. Ishchi guruh a'zolari tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egalari (ularning vakillari) bilan munosabatlarda o'zi ishlaydigan idora manfaatlarini ifoda etadi.

6. Ishchi guruh a'zolari tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) haqiqiy holatini aniqlash hamda identifikatsiya qilish natijalari bo'yicha bergan ma'lumotlar va xulosasi uchun javobgar hisoblanadi.

7. Ishchi guruh a'zolariga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

8. O'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida sodir etilgan huquqbuzarliklari uchun ishchi guruh a'zolari amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo'ladi.

9. Ishchi guruh a'zolariga xatlov davomida tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egalari va ular joylashgan manzilda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining qonuniy faoliyatiga aralashish, kundalik ish faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.

10. Ushbu Tartib talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda

javobgar bo'ladilar.

Nurota tuman hokimining  
2023-yil 3-noyabrdagi  
131-5-74-Q/23-son qaroriga  
3-ilova

**Nurota tumanida tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini)  
xatlovdan o'tkazish ishlarini tashkil qilish va muvofiqlashtirish bo'yicha  
ishchi guruh tarkibi**

T/r	F.I.O.	Ish joyi va lavozimi
1.	U.Kenjayev	Tuman hokimining maslahatchisi, - Ishchi guruh rahbari
2.	F.Abdudzizov	Tuman iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati boshlig'i, - Ishchi guruh rahbari o'rinbosari
3.	S.Haydarov	Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
4.	O.Safarov	Tuman IIB Yo'l harakati xavfsizligi guruhi kata inspektori
5.	J.Axmatkulov	Nurota tuman bosh arxitektori
6.	O.Jo'raqulov	Tuman soliq inspeksiyasi boshlig'i
7.	A.Sunnatov	Tuman savdo-sanoat palatasi boshlig'i
8.	R.Safarov	Kadastr agentligi Nurota tuman filiali boshlig'i

**Izoh:** Mazkur qaror bilan tashkil etiladigan tashqi reklamani muvofiqlashtirish bo'linmasi xodim(lar)i ushbu ishchi guruhi a'zosi hisoblanadi.

Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.